



O'ZBEK TILINI LOTIN GRAFIKASI ASOSIDA O'QITISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Toshtemirova Dinora O'tkir qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilini lotin grafikasi asosida o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar hamda ularning yechimlari ko'rib chiqiladi. Xususan, darsliklar metodik yangilanishi, o'qituvchilarning lotin grafikasi bo'yicha tayyorgarligi, texnologik vositalar bilan uyg'unlashuvi, ijtimoiy-ma'naviy holatlar, shuningdek jamoatchilikda yozuv bo'yicha qarama-qarshi munosabatlar tahlil qilinadi. Grafik o'zgarishlarning ko'cha afishalari va ommaviy axborot vositalaridagi aks etishi ham muhokama etiladi. Ilmiy asoslangan takliflar orqali sohadagi mavjud muammolarga amaliy yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, lotin yozuvi, darslik, metodika, grafik o'zgarish, savodxonlik, yozuv madaniyati

Annotation: This article examines the pressing issues arising in the process of teaching the Uzbek language based on the Latin script and proposes solutions to these challenges. In particular, it analyzes the methodological updates of textbooks, the preparedness of teachers in Latin script, integration with technological tools, socio-cultural factors, and the public's conflicting attitudes towards the script. The article also discusses how graphic changes are reflected in street advertisements and mass media. Scientifically grounded proposals are presented to offer practical solutions to the existing problems in the field.

Keywords: Uzbek language, Latin script, textbook, methodology, graphic change, literacy, writing culture



Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы, возникающие в процессе преподавания узбекского языка на основе латинской графики, а также предлагаются пути их решения. В частности, анализируются методические обновления учебников, подготовленность учителей по латинской графике, интеграция с технологическими средствами, социально-культурные аспекты, а также противоречивые общественные мнения по поводу письменности. Обсуждается также отражение графических изменений на уличных афишах и в средствах массовой информации. Научно обоснованные предложения направлены на практическое решение существующих проблем в данной области.

Ключевые слова: узбекский язык, латинская графика, учебник, методика, графические изменения, грамотность, культура письма

Kirish

Yozuv millat madaniyati va tafakkurining ifodasi sifatida til taraqqiyotining ajralmas qismidir. 1993-yilda qabul qilingan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun o‘zbek tilini xalqaro maydonga olib chiqish va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qildi. Biroq, bugungi kunda yozuv islohoti yakuniga yetmagan, kirill va lotin yozuvlarining paralel qo‘llanilishi turli chalkashliklarga olib kelmoqda. Maqolada aynan shu muammolar keng yoritiladi.

Asosiy

Mustaqillikning dastlabki yillarida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi milliy g‘ururimizning yorqin ifodasi bo‘ldi. Bu maqomga erishish oson bo‘lmagan, tilimiz turli bosim va tahqirlarga duch kelgan. Hozirgi kunda esa bizning asosiy vazifamiz – bu tilni yuksak qadrlash, uning jamiyat o‘rnini mustahkamlash va uni rivojlantirish yo‘lida birgalikda harakat qilishdir.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tilini xalqimizning milliy o‘zligi va mustaqil davlatchiligi ramzi, bebaho ma’naviy boylik deb ta’riflagan. “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning keyingi tahrirlarida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga to‘liq o‘tish masalasi asosiy e’tiborga olingan. Bu esa mavjud grafik tizimga qat’iy rioya qilish zaruratini tug‘diradi.

Yozuv insoniyatning ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy boyliklarini avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Taniqli tilshunos olim L.R.Zinder yozuvni “inson tafakkurining buyuk kashfiyoti” deb atagan. Yozuvning strukturaviy va funksional jihatlarini o‘rganish, imlo qoidalarini bilish kasbiy mahoratni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Yillar davomida lotin yozuviga to‘liq o‘tilmadi. Hozirgi kungacha bu jarayon yakuniga yetkazilmagan, ya’ni hali ham to‘liq amalga oshmagan.

Yangi metodik talablarga ko‘ra o‘qitishdagi o‘zgarishlar. So‘nggi yillarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasida sezilarli yangilanishlar kuzatildi. Xususan, yangi avlod darsliklarida lingvistik va psixologik yondashuvlar muvofiqlashtirildi. Shu bilan birga, lotin grafikasi asosida tuzilgan o‘quv materiallari ko‘paygan bo‘lsa-da, ularning barchasi zamon talablariga to‘liq javob bermaydi. Ba’zi darsliklarda “G”, “O” kabi harflarning to‘g‘ri talaffuzi va yozilishi bilan bog‘liq mashqlar yetarli emas.

Asosiy muammolar:

1. Yozuv tizimlarining parallel mavjudligi:

Ayni paytda kirill yozuvi o‘z mavqeini to‘liq yo‘qotmagan: ko‘plab rasmiy

hujjatlar, reklama bannerlari, do‘kon nomlari, ko‘cha afishalari hali-hanuz kirill alifbosida berilmoqda. Masalan, Toshkent shahri markazidagi

“PAXAT” kafesi yoki “CAËXAT” mehmonxonasi peshtoqida hanuz kirill



yozuvi saqlanib qolgan. Bu holat yosh avlodda tushunmovchilik va yozuvda

ikkilanish keltirib chiqarmoqda.

2.O‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligi

Bugungi kunda yosh o‘qituvchilar asosan lotin yozuvida dars berishadi, ammo ba’zi hududlarda hali ham kirill yozuviga tayangan o‘qituvchilar faoliyat yuritmoqda. Shu sababli, o‘qituvchilarning davriy ravishda metodik treninglar va raqamli savodxonlik kurslaridan o‘tishi zarur.

3.Grafik belgilarni texnologik qo‘llashdagi muammolar

Lotin yozuvida ishlatiluvchi maxsus harflar — “G’”, “O’”, shuningdek tutuq belgisi (‘) ko‘plab raqamli qurilmalar va dasturlarda muammoli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ko‘plab mobil qurilmalarda bu harflar o‘rniga oddiy apostrof ishlatiladi, bu esa savodiy xatolarga sabab bo‘ladi. Masalan, “O‘zbekiston” so‘zi ko‘pincha “O'zbekiston” tarzida noto‘g‘ri yoziladi.

4.Jamoatchilik va ota-onalar bilan uzviylik yetishmasligi

Kirill yozuvida ta’lim olgan ota-onalar farzandlarining darslarini tushunishda qiynaladi. Bu holat oilaviy ta’limda qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va reklama vositalarida yozuv madaniyati bo‘yicha yetarli targ‘ibot yo‘q.

Amaliy tavsiyalar:

1. Davlat darajasida yagona yozuv standartini qat’iy joriy etish va barcha rasmiy hujjatlarni lotin grafikasi asosida yuritishni majburiylashtirish.
2. O‘qituvchilar uchun metodik yangilanishlar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tizimli ravishda tashkil etish.
3. Darslik va mashqlarni “G’”, “O’” kabi grafik shakllarga alohida e’tibor berib ishlab chiqish, ayniqsa boshlang‘ich bosqichda.



4. Ko'cha yozuvlari va afishalar ustidan monitoring olib borish, ularni standartlarga moslashtirish bo'yicha qonuniy choralar ko'rish.

5. Texnologik platformalarda maxsus belgilar to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash uchun raqamli yechimlar ishlab chiqish.

6. Ota-onalar va keng jamoatchilikni ham jalb qilgan holda savodxonlikni targ'ib qilish bo'yicha mediakampaniyalar tashkillashtirish.

Xulosa

Lotin grafikasi — bu nafaqat alifbodagi islohot, balki butun jamiyat tafakkuri va savodxonligiga oid masala. Uni to'g'ri va izchil joriy etish uchun metodik, texnologik va madaniy birlik talab etiladi. Bugungi o'zgaruvchan axborot muhitida yozuv madaniyatini shakllantirish, uni raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish va keng jamoatchilikni bu jarayonga jalb qilish muhimdir. Faqat shundagina o'zbek tili zamonaviylik va an'anani uyg'unlashtirgan holatda taraqqiy topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanov N. O'zbek tili va yozuvi. O'quv qo'llanma. Toshkent: 2004-yil.
2. Maxmudova M. Lotin yozuvida savod o'rgatishning metodik asoslari // CyberLeninka.
3. Jabborov D. Kirill yozuvi va lotin yozuvi: mavjud muammolar va yechimlar // Oxus Society. – 2023.
4. Mirziyoyev Sh. "O'zbek tilining nufuzini oshirish to'g'risida" gi ma'ruzasi.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent.: "Universitet", 2002-yil.

References:

1. Husanov N. O'zbek tili va yozuvi. O'quv qo'llanma. Toshkent: 2004.



2. Maxmudova M. Lotin yozuvida savod o'rgatishning metodik asoslari // CyberLeninka.
3. Jabborov D. Kirill yozuvi va lotin yozuvi: mavjud muammolar va yechimlar // Oxus Society. – 2023.
4. Mirziyoyev Sh. “O‘zbek tilining nufuzini oshirish to‘g‘risida”gi ma’ruzasi.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent.: “Universitet”, 2002.